

## TILSHUNOSLIKDA PARALINGVISTIKA YO'NALISHINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7516410>



ELSEVIER



Foundation of Advanced Research Publishers

**Yusupova Aziza Muhiddin qizi**

Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti  
azizaxonyusupova1996@gmail.com  
+998974428765



Received: 08-01-2023

Accepted: 09-01-2023

Published: 22-01-2023

**Abstract:** Ushbu maqolada amaliy tilshunoslikda paralingvistika yo'nalishining ahamiyati, uning turlari: fonatsiya, kinetik, grafik va ularning nutqiy aloqadagi o'rni, vazifalari xususida fikr yuritilgan. Shuningdek, fonatsion vositalarning shakllanishi, turlari, xususiyatlari, ularning inson psixofiziologik holati bilan aloqadorligi kabi amaliy jihatlari haqida mulohaza yuritilgan.

**Keywords:** paralingvistika, fonatsiya, kinetika, grafika, nutqiy aloqa, nutqiy vaziyat, paralingvistik vositalar, noverbal vositalar, mimika, tana harakati, belgilar, nutq tembri, kuch va hajm, ohang, nutq harakati, nutq tezligi va sekinligi, emotsional-ekspressivlik

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.



Foundation of Advanced Research Publishers

Received: 08-01-2023

Accepted: 09-01-2023

Published: 22-01-2023

**Abstract:** В данной статье рассматривается значение направления прикладной лингвистики-паралингвистики, его виды: фонетические, кинетические, графические и их роль в речевом общении, функции. Также были рассмотрены такие практические аспекты, как формирование, виды, особенности фонационных средств, их связь с психофизиологическим состоянием человека

**Keywords:** паралингвистика, фонация, Кинетика, графика, речевая коммуникация, речевая ситуация, паралингвистические средства, невербальные средства, mimika, движения тела, символы, тембр речи, сила и громкость, тон, движение речи, скорость и медлительность речи, эмоционально-выразительность

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

“Paralingvistika” tushunchasi XX asrning 40-yillarida A.A. Xill tomonidan fanga kiritilgan, ammo paralingvistikaning asosiy rivojlanishi 60-yillarning boshlang'ich davrlariga to'g'ri keladi<sup>48</sup>. Paralingvistik vositalarning ayrim turlari XX asrning 30-yillarida o'rganilgan va bu N.V.Yushmanovning “G'ayritabiiy fonetika” tadqiqotida o'z aksini topgan. “Paralingvistika” so'zi yunoncha “para” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “haqida” deb tarjima qilingan, ya'ni “tilshunoslik haqida” ma'nosini anglatadi. Paralingvistika – og'zaki nutq orqali yuzaga chiqmaydigan, ammo semantik xususiyatga ega bo'lgan vositalar to'plami orqali nutqiy aloqani yuzaga keltiruvchi amaliy tilshunoslikning o'ziga xos yo'nalishidir. Paralingvistik vositalarning 3 turi mavjud<sup>49</sup>: fonatsiya, kinetik va grafik.

Fonatsiya tarkibiga nutqning tembri, uning tezlik darajasi, hajmi, pauza va to'xtamlarning turlari (“hmm”, “uh”, “m-m” va boshqalar), fonetik hodisalar, shuningdek, nutq tovushlarining talaffuz xususiyatlari (dialektal, ijtimoiy va

<sup>48</sup> Birdwhistell R., Kinesics and context, Phil., [1970].

<sup>49</sup> Колианский Г.В., Паралингвистика, М., 1974.

idiolektik) kabilar kiradi. Kinetik tarkibiy qismlarga imo-ishoralar, tana a'zolarining harakatlari, yuz ifodalari kiradi. Grafik turida esa harflar va tinish belgilarining bajarilish turi (qo'lyozma va elektron shakl), harflarga grafik qo'shimchalar qo'shish usullari, harf yoki so'z va qo'himchalarning yozuvchi uchun qulay bo'lgan shakllar bilan ifodalanishi ( +, =, & , § va boshqalar kabi belgilar). Bu kabi vositalar nutqiy aloqani to'laqonli sifatli darajada ta'minlashi mumkin, shuningdek, bu so'zlovchining o'ziga xos individual xususiyatlarini aniqlashda ham yordam beradi. Umuman olganda, paralingvistik vositalar nutqning tushunilishiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazmaydi.

Ayrim olimlar paralingvistik vositalarni ikki asosdan iborat deyishadi: biologik va semiotika<sup>50</sup>. Biologik yuz ifodalari va ba'zi tana harakatlari va imo-ishoralarni o'z ichiga oladi. Ushbu usullar tug'ma bo'lishi ham mumkin yoki ularning aksariyati odamlarda yuqori darajalarda keng tarqalgan odatga aylangan harakatlar natijasi ham bo'lishi mumkin. Semiotik (ikonik) vositalarga milliy madaniyatlarning tili va rivojlanishi uchun umumiy qabul qilingan an'anaviy imo-ishoralar, yo'l belgilari, transport nazorati signallari, reklama belgilari kabilar kiradi.

A.Konan Doylning fikricha, paralingvistika o'z ichida universal, etnolingvistik va idiolektik komponentlar farqlanadi<sup>51</sup>. Shuning uchun ham, paralingvistik vositalar, nafaqat, og'zaki xabarning ma'nosini to'ldiradi, balki ma'ruzachi (yozuvchi), uning ijtimoiy va yosh xususiyatlari, jinsi, xarakter xususiyatlari va boshqalar haqida ma'lumot manbai hisoblanadi. Paralingvistik vositalarsiz til tizimi mavjud emas, ya'ni nutqiy aloqada nutq birliklari bo'lmasa-da, nutq xabari paralingvistik hamrohliksiz tabiiy ravishda namoyon bo'lmaydi. Shuning uchun paralingvistik vositalar har bir nutq birligida u yoki bu darajada o'z ifodasiga ega bo'ladi.

Paralingvistik vositalar og'zaki nutqqa nisbatan 3 funksiyani bajarishi mumkin:

1) qo'shimcha ma'lumot kiritish (ba'zan og'zaki nutqda ifoda etgan ma'noga zid bo'lishi mumkin): masalan, ijobiy og'zaki matn salbiy munosabat qiymati bilan fonatsiya xususiyatlari bilan birga bo'lishi mumkin va hokazo;

2) og'zaki nutqda yetishmayotgan komponentni to'ldirish, masalan, "Biz bilan borishni xohlaysizmi?" - salbiy imo-ishora orqali;

3) og'zaki nutqdagi aynan ifoda etilgan ma'noni anglatuvchi ishoralar berish, masalan, "Men bu qizil to'pni xohlayman" gapiga nisbatan "+" ishorasini berish<sup>52</sup>.

<sup>50</sup> Панина Н. И. Паралингвистика [Текст]: Методическое пособие / Н. И. Панина. – Кострома: КГТУ, 2003. – 35 с.

<sup>51</sup> Николаева Т. М., Успенский Б. А., Языкознание и паралингвистика, в кн.: Лингвистические исследования по общей и славянской типологии, М., 1966.

<sup>52</sup> Горелов И. Н., Невербальные компоненты коммуникации, М., 1980.

Paralingvistik vositalar og'zaki nutqda vaqtincha namoyon bo'ladi, ya'ni ular barqaror semiotik tizim emas. Paralingvistik vositalar nutq aloqasida mavjud bo'lishi shart, ammo ularning mavjudligi xususida oldindan aytib bo'lmaydiganligi, beqarorligi, shuningdek, nutqiy vaziyatdagina so'zlovchi tomonidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vositalar ekanligi bilan boshqa til belgilaridan ajralib turadi. Masalan, ma'lum bir savol turini talaffuz qilishda ohang talab qilinadi, ammo tembrning ifoda darajasi noma'lum bo'lib qoladi, shuning uchun ohangning turi lingvistik haqiqat, ya'ni savol xarakterida bo'lishi kerak, ammo tembrning turi, darajaviy xususiyatlari paralingvistik jarayondir.

Paralingvistik aloqa vositalari ikki xususiyati bilan ajralib turadi. Bir tomondan, ular nutq birliklarini tejashga imkon beradi. Aytaylik, sotuvchiga murojaat qilib, biz buyumga ishora qilib: "Iltimos, bu kosani ko'rsating", deymiz va uning tavsifiga qo'shimcha so'z sarflamaymiz. Boshqa tomondan, ular so'zlar vositasida aytilmagan narsalarning ko'pini qoplaydi, nutqning pastki matnini, polisemiyasini, uning stilistik xususiyatlarini, his-tuyg'ularini, munosabatlarini va boshqalarni ochib beradi. Buni faqat so'zlovchining intonatsiyasi, yuz ifodalari, imo-ishoralari orqali tushunish mumkin<sup>53</sup>. Tinglovchilarning nutqsiz xatti-harakatlarining elementlarini kuzatish va hisobga olish qobiliyati sizning nutqingizga tuzatishlar kiritishga, monologik nutqni tinglovchilar bilan faol muloqotga aylantirishga, ularni o'zaro rag'batlantirish jarayoniga "jalb qilishga" imkon beradi. Axir, nutqning ohangi ko'p jihatdan tinglovchilarning reaksiyasiga, uning so'zlovchini qanchalik qo'llab-quvvatlashiga yoki noxayrixoh ekanligiga bog'liq. Shuning uchun paralingvistik vositalar orqali nutqiy maqsad to'laqonli amalga oshadi. Bunday nutqda hissiy ta'sir, emotsional xarakter to'la-to'kis bo'y ko'rsatadi.

Paralingvistik vositalarning birinchi turi fonatsiya yunoncha "phōnē" dan "tovush, ovoz" degan ma'noni anglatadi. Fonatsiya – bu og'zaki nutq davomida o'zgartirilgan tovushni hosil qilish uchun turli tovushlarning artikulyatsion xarakteridan foydalanish turidir. Fonatsiya, umuman, hodisa sifatida jismoniy, inson ovoz tizimidagi barcha xususiyatlari bilan bog'liq hodisadir. Fonatsion aloqa vositalari insonning xarakteri, holati, temperamenti, hayotiy tajribalari, o'ziga xos individual xususiyatlari haqida aniq ma'lumot beradi. Fonatsion vositalar ikki guruhga bo'linadi: lingvistik (til) va paralingvistik (prosodik).

Lingvistik fonatsiyaga nutq tovushlari, ulardan shakllangan so'zlar, intonatsiyalar, og'zaki nutqda stress holati kabilar kiradi. Paralingvistik fonatsiyaga quyidagi kiradi: ovozning vokal fazilatlari, ovoz to'lqini, tembri va ovoz kuchi, baland-pastligi, ohangdagi artikulyatsion xususiyatlar, ohangdagi ekstralingvistik

---

<sup>53</sup> Николаева Т.М. Паралингвистика // [Лингвистический энциклопедический словарь](#) / Под ред. В.Н. Ярцевой. — М.: Советская энциклопедия, 1990.

ifodalar, turli o'ridagi mantiqiy pauzalar, til imo-ishoralari, nutq templari, tovushlarning artikulyatsiyasi va intonatsion o'zgarishlar kabilar. Quyida bularning ayrimlari haqida mulohaza yuritiladi:

1. Ekstralingvistika vositalariga quyidagilar kiradi:

1) muloqot paytida paydo bo'ladigan o'ziga xos tovushlar, masalan, kulish, yig'lash, pichirlash, xo'rsinish, xirillash, ikkilanish va boshqalar..

2) nol tovushlar: pauzalar;

3) ajratish tovushlari: yo'tal;

4) nazalizatsiya tovushlari: ha-ha-ha<sup>54</sup>.

2. Nutq temбри - bu ovozning individual xususiyatiga bog'liq bo'lib, bu nutqqa o'ziga xos tovush va hissiy-ekspressiv beradi. Siz odamni ovoz tembridan ko'rmasdan tanib olishingiz mumkin, chunki bu insonning o'ziga xos identifikatsiya belgisidir. Insonga xos individual tembr juda qiyin, ammo uni ovozning eng aniq belgisi: baland ovoz, qichqiriq, titroq ovoz kabilar bilan tavsiflash mumkin.

3. Ovozning kuchi (hajmi) - bu individual jihatdan ovoz miqdorining pastligi, albatta, bu ko'proq vaziyatga bog'liq. Bu ikki tushuncha bilan kuch va hajm orqali yuzaga keladi. Insonlarning ovoz kuchi turlichadir. Ba'zi odamlar kuchli ovozga ega, ba'zilar esa zaif, sokin ovozga ega. Bularning bari insonlarning fiziologik va biologik xususiyatlari bilan aloqadordir.

4. Nutq sur'ati - bu nutq elementlarini talaffuz qilish tezligi<sup>55</sup>. Nutq sur'ati prosodik elementlarga tegishli bo'lib, intonatsiya bilan aloqadordir. Nutq tezligi individual xususiyatlarga bog'liq, ya'ni so'zlovchining emotsional xususiyatlari, nutqiy vaziyat va talaffuz uslubi kabilar. Bundan tashqari, olimlarning ta'kidlashicha, nutq sur'ati insonning psixofiziologik xususiyatlariga ham aloqadordir.

Nutq tezligi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- kommunikativ funktsiya, ya'ni nutqiy aloqani shakllantirish;

- ekspressiv funktsiya, ya'ni his-tuyg'ularni ifoda etish vositasi;

- stilistik funktsiya, ya'ni nutqiy vaziyatda hamkorlar munosabatlarni ifodalash vositasi;

- sintaktik funktsiya, ya'ni nutqiy maqsadni to'la-to'kis nutqiy vaziyatda aks ettirish vositasi<sup>56</sup>.

Nutq haraatining tezligi va sekinligi turlicha pragmatik xususiyat kasb etadi. Agar biror kishi nutqining tezligini sekinlashtirsa, demak, u ta'kidlaydi xabarning

<sup>54</sup> Василик М. А. Пара- и экстралингвистические особенности невербальной коммуникации [Текст] / М. А. Василик. - М.: Эксмо, 2009. - 73 с.

<sup>55</sup> Пойманов О. В. Семантическое пространство видеoverбального текста / О. В. Пойманов // Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - М., 1997 - 108 с.

<sup>56</sup> Реформатский А. А. Введение в языкознание [Текст] / А. А. Реформатский. - М., 1998. - 167 с.

ahamiyatini yanada oshirish, o'sha axborotga urg'u berish maqsadini ko'zlaydi. Va aksincha, sekin so'zlovchi inson nutqini tezlashtirsa, ushbu fikr yoki axborot unchaik muhim emas, ikkinchi darajali ma'lumot ekanligini bildiradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, fonatsion vositalar nutqiy vaziyat va muloqot uchun juda muhimdir. Nutqiy aloqa paytida so'zlovchi va tinglovchiga xos ekspressiv-emotsional holatlar, psixofiziologik jarayonlar bevosita paralingvistik vositalar orqali yuzaga chiqadi. Aynan fonatsion birliklarning o'rganilishi amaliy tilshunoslikning ko'pgina tarmoqlari uchun ahamiyatlidir. Ya'ni fonatsion belgilar so'zlovchining nutqiy vaziyatdagi holati bilan bir qatorda uning individual xususiyatlari ham aniq ma'lumot beradi. Bu esa psixolingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika, sud lingvistikasi kabi tarmoqlarda o'rganish obyektlari bo'lib xizmat qila oladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Birdwhistell R., Kinesics and context, Phil., 1970.
2. Колшанский Г.В., Паралингвистика, М., 1974.
3. Панина Н. И. Паралингвистика [Текст]: Методическое пособие / Н. И. Панина. – Кострома: КГТУ, 2003. – 35 с.
4. Николаева Т. М., Успенский Б. А., Языкознание и паралингвистика, в кн.: Лингвистические исследования по общей и славянской типологии, М., 1966.
5. Горелов И. Н., Невербальные компоненты коммуникации, М., 1980
6. [Николаева Т.М.](#) Паралингвистика // [Лингвистический энциклопедический словарь](#) / Под ред. [В.Н. Ярцевой](#). – М.: [Советская энциклопедия](#), 1990.
7. Василик М. А. Пара- и экстралингвистические особенности невербальной коммуникации [Текст] / М. А. Василик. – М.: Эксмо, 2009. – 73 с.
8. Пойманов О. В. Семантическое пространство видеовербального текста / О. В. Пойманов // Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1997 – 108 с.
9. Реформатский А. А. Введение в языкознание [Текст] / А. А. Реформатский. – М., 1998. – 167 с.